SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 2
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

O‘TLOQI BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA MOSH (Phaseolus aureus Piper) NAVLARINI EKISH MUDDATI VA ME’YORLARINI BARG SONI RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich

Farg’ona Davlat Universiteti Agrar qo’shma fakulteti dosenti, qishloq xo’jaligi fanlari falsafa doktori (PhD)
Orcid.org.0000-0002-6836-7031

Annotatsiya
Maqolada o‘tloqi botqoq tuproqlar sharoitida mosh navlarining barg soni rivojlanishiga o‘rganilgan omillar ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar bayon etilgan bo‘lib, ekish muddati va me’yorlari barg soni rivojlanishiga ta’sir qilgani kuzatilgan.
Kalit so‘zlar
Mosh, nav, Durdona, barg, o‘tloqi botqoq tuproq.

Kirish Ekinlar strukturasining o‘zgarishi dukkakli-don ekinlaridan yuqori sifatli hosil yetishtirish uchun intensiv texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Shunday texnologiyalardan biri sug‘oriladigan maydonlarda ekilgan boshoqli don ekinlarini yig‘ishtirb olingandan so‘ng, bo‘shagan maydonlarda moshning ertapishar navlarini takroriy ekin sifatida ekib, don etishtirshni ko‘paytirishdan iborat.

Hozirgi vaqtda yurtimizda donli, dukkakli, moyli ekinlarga katta e’tibor qaratilib ekin maydonlari kengaytirilmoqda. Dehqonchilikni rivojlantirish va erdan unumli foydalanish uchun katta imkoniyatlar ochildi. Bugungi kunda eng asosiy muammolardan biri bu oqsil masalasi, ya’ni insoniyatni oqsilga bo‘lgan talabini qondirish. Bu masalani yechishda dukkakli don ekinlaridan mosh o‘simligining ahamiyati katta.

Ko‘pgina ma’lumotlarda keltirilishicha, tuproq unumdorligi va hosildorligini oshirishda takroriy ekinlarni ahamiyati katta, chunki don-dukkakli ekinlar takroriy ekin sifatida ekilganida sifatli don olish bilan birga o‘zidan keyin ekiladigan ekinlar uchun yaxshi o‘tmishdosh hisoblanadi.

Mosh yuqori harorat va qurg‘oqchilikka bardoshliligi sababli ko‘proq kuzgi boshoqli don ekinlari ang‘izida takroriy ekin sifatida etishtirilmoqda [1]. Shu sababli ham moshni takroriy ekin sifatida paxta va boshoqli don ekinlari almashlab ekish tizimiga kiritilishi istiqbolli hisoblanadi. Mosh kuzgi bug‘doydan keyin ang‘izida maxsus texnologiya bo‘yicha suv ta’minoti cheklangan sharoitda maqbul muddatda ekilsa, don hosili 18,6-19,3 s/ga ni tashkil etib, tuproqdagi tabiiy azotning to‘planishi sezilarli darajada oshadi.

Adabiyotlat sharhi Sh.Ernazarov, S.Negmatova va boshqalarning ma'lumotiga ko‘ra, ang‘izda takroriy ekinlar yozning ikkinchi yarmida etishtirilsa, bahordagiga nisbatan vegetatsiya davri birmuncha qisqaradi. Chunki, takroriy ekinlar kunning qisqarishi sharoitida o‘simlikning yorug‘lik reaksiyasi qisqa kunlarda o‘tishi natijasida vegetatsiya davrining davomiyligi ham qisqaradi. Natijada takroriy ekinlar yozning ikkinchi yarmi mobaynida to‘liq pishib etiladi [5; 27-28-b.].

A.Mansurov [6; 119-b.] ning Andijon viloyati sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitda 2012-2015 yillarda o‘tkazgan tajribalarida aniqlanishicha, takroriy ekin turlaridan keyin ekilgan kuzgi bug‘doyning hosildorlik ko‘rsatkichlari nazorat variantiga nisbatan eng yuqori hosil mosh o‘rniga ekilganda kuzatilgan. Jumladan, hosildorlik nazorat variantida o‘rtacha gektaridan 52,4 s/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, makkajo‘xori o‘rniga ekilganda 4,9 s/ga, tariqdan keyin ekilganda 2,5 s/ga, soyadan ekilganda 12,0 s/ga va moshdan keyin 14,5 s/ga qo‘shimcha don va shunga mos ravishda somon hosili olingani aniqlangan.

Tadqiqot uslublari Tajribalar SHITIning tajriba maydonlarida 13/1 karta chekida olib borildi. Tajriba maydoni tuprog'i o‘tloqi botqoq. Tajriba dalasining tuprog‘i sho‘rlanmagan, xaydov qatlami 30-40 sm. Tuproqdagi eritmalarning pH miqdori 6,8-7,3 birliklarida bo‘lib, mexanik tarkibi bo‘yicha og‘ir loylidir.

Ilmiy tadqiqot ishlarida olib borilgan fenologik kuzatuvlar va biometrik o‘lchovlar “Методика Государственного сортоиспитания селскохозяйственних култур” va “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (O‘zPITI, 2007) asosida o‘tkazilgan. Fotosintez sof mahsuldorligini (A.A Nichiporovichning vazn uslubi) aniqlash, shuningdek olingan natijalar B.A.Dospexovning “Dala tajribalari uslublari” bo‘yicha Microsoft Excel dasturi yordami asosida matematik statistik tahlil qilindi va hisoblandi.

Tadqiqot natijalari Ekinlarning fotosintetik faoliyatiga tashqi muhit keskin ta'sir ko‘rsatadi. Fotosintetik faoliyatining ko‘rsatkichlari bu barg soni, barg yuzasi, quruq modda miqdori va fotosintez mahsuldorligi.

Ekinlarning hosili shakllanishida mo‘l barglar hosil bo‘lishini ta'minlovchi tashqi muxit omillari ishtirok etadi. Hosil barglarning shakllanishi, ularning rivojlanishi va saqlanishiga bog‘liqdir, boshqacha aytganda, barglar qancha yaxshi rivojlansa, fotosintez mahsuldorligi shuncha ortadi. Dala ekinlarini etishtirishda ekish muddati, me'yori to‘g‘ri qo‘llanilsa, barglar yaxshi rivojlanadi, fotosintetik faoliyati normal o‘tadi, buning evaziga hosil ko‘payadi. Tajribalarda kuzatuvlari bo‘yicha mosh navlarida barg hosil bo‘lishi navning xususiyati va tadqiq qilingan ekish me'yori va muddatiga bog‘liq ekan.

Mosh etishtirish davrida sharoit maqbul bo‘lsa, o‘simlikda barg yuzasi keng bo‘ladi. Ammo barg soniga va barg yuzasiga etishtirish texnologiyasi ta'sir ko‘rsatib, ko‘rsatkichlar o‘zgarib turadi.

Tajribalarda Durdona navida shonalash davrining boshlanishida barglar soni 4,8-4,6 ta donani tashkil qilib, kech ekilganda va ekish me'yori yuqori bo‘lganda kamayganligi kuzatildi. Gullash fazasida barglar soni oshib bahorda ekilganda 10,2-9,1 donani, 20 iyunda ekilganda 11,4-9,1 donani, 1 iyulda ekilganda 9,4-7,2 donani, 10 iyulda ekilganda 7,0-5,8 donani tashkil qilgan. Iyun va iyul oylarida ekilganda barg sonini oshishi kuzatildi. Oxirgi muddatda ekilganda barg sonini kamayishi aniqlandi.

Dukkaklanish davrida barg soni oshib, bahorda ekilganda 16,7-13,2 ta, 20 iyunda ekilganda 16,5-12,6 ta, 1 iyulda ekilganda 14,2-12,8 ta va oxirgi ekish muddatida 11,3-

8,8 tani tashkil qildi. Ekish me’yori oshgansari barg sonini kamayishi kuzatilgan. Bu yorug‘lik va oziqani etishmasligi tufayli shunday jarayon kuzatilmoqda. Eng yuqori ko‘rsatkich Durdona navi 20 iyunda ekish me’yorini 200 ming dona qilib ekilganda kuzatildi.

XULOSALAR Barglarni rivojlanishiga ekish me’yori ta’sir ko‘rsatib, Durdona navida 2,8 dan 2,1 gacha kamayganligi aniqlangan. Ekish muddati barg rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan, bunda barg soni Durdona navida 1,0-1,7 donaga oshgan. Iyul oyida ekilganda barg soni Durdona navida 0,3-2,5 donaga kamayganligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Atabayeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh yetishtirishning intensiv texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019.

2.Atabayeva X.N, Xudoyqulov J.B O‘simlikshunoslik.T “Fan va texnologiya”. 2018.

3.Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - М.: Колос, 1985. - 317 с.

4.Dala tajribalarini olib borish metodikasi O‘zPITI.2007 yil .

5.Ernazarov Sh. Negmatova S Ang‘izda yetishtirilgan moshning hosildorligi va samaradorligi.“Agro ilm”.O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali ilmiy ilovasi, Toshkent, 2009. № 1(9). B.27-28.

6.Mansurov A.M ”Maqbul takroriy ekin turlarini tuproq unumdorligi va kuzgi bug‘doy hosildorligiga ta’siri”//Qishloq xo‘jaligi falari bo‘yicha falsafa fanlari doktorlik dissertatsiya ishi. Toshkent.2017 B 119.